



ILMIY MATNLARDA PLAGIATNI TEKSHIRISH - ILMIIY MUAMMO SIFATIDA

Islomov Shohijahon Shuhratjon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

shoxjaxonislomov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371335>

Annontatsiya

Maqolada plagiat sababli kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolar va ulardan qochishda ishlatiladigan optimal usullar haqida shuningdek ilmiy ishlarda plagiatni aniqlashda ishlatiladigan dasturlar hamda saytlar to'g'risida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: Plagiat tekshiruv, kontent, matnning originalligi, algoritm, plagiat detektor.

Plagiat (lotincha "plagio" – o'g'irlyaman) – adabiyot, fan, san'at asari, kashfiyot yoki ratsionalizator taklifiga mualliflikni (qisman yoki to'la) qasddan o'zlashtirish.¹ Ilmiy faoliyatda talaba va yoshlar shuningdek o'qituvchi professorlar ham ishni tezlatish va mehnatdan qochish uchun bilib bilmay plagiatga yo'l qo'ymoqdalar. Bu akademik shaffoflikka putur yetkazadi. So'nggi yillarda ilmiy nashrlar va tadqiqot ishlarida plagiat holatlarining ortishi kuzatilmoqda. Masalan, 2022-yilda olib borilgan xalqaro tadqiqot natijalariga ko'ra, ilmiy maqolalarning 30 foizidan ortig'ida kamida bitta plagiatga oid element aniqlangan^{2,3}. Bundan tashqari, Yevropa Komissiyasi tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Yevropa universitetlarining 80% dan ortig'i ilmiy ishlarda akademik halollikni ta'minlash uchun majburiy ravishda plagiat tekshiruvidan o'tishni talab qiladi.^{4,5} Bunday talablar Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Skandinaviya mamlakatlarida aniq belgilangan. Ayni paytda, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda plagiatga qarshi choralar asta-sekin joriy qilinmoqda va hozircha bu sohada yagona davlat siyosati mavjud emas.⁶

Plagiat tekshiruv - bu hujjatni yoki uning bir qismini plagiat yoki takroriy tarkibni tekshirishi mumkin bo'lgan onlayn ilova. Ushbu ilovalar kontent yoki hujjatlarning boshqa nusxalari uchun internetni skanerlaydi. Ko'pgina bunday vositalar veb-sayt URL manzilini tekshirish yoki hujjatlardan (.rtf, ex, .doc, .pdf, .txt, .docx va .odt) tarkib qo'shish imkonini beradi.⁷

¹ G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – T., 2020. – 128 b.

² Fishman, T. (2009). "We Know it When We See It": Conceptualizing Plagiarism in the Digital Age.

³ Jones, K. (2022). "Plagiarism in Higher Education: Trends and Solutions."

⁴ Chien, S. (2020). Advances in Plagiarism Detection Using AI and Machine Learning.

⁵ Turnitin. (2021). The Importance of Academic Integrity. Retrieved from <https://www.turnitin.com>.

⁶ <https://scientific-jl.com/new/article/download/4233/4038/8088>

⁷ <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/download/93/87>

Plagiat tekshiruvni paragraflar, jumlar yoki g'oyalardagi o'xshash tarkibni aniqlash uchun murakkab xususiy algoritmlardan foydalanadi. Agar biron bir sahifada bir xil matn bo'lsa, jumla plagiat bo'ladi. Plagiatni aniqlash dasturi hujjatlarni real vaqt rejimida skanerlaydi, aniq natija beradi. Siz yaratgan kontentda oldingi mualliflarning ilhomlari bo'lishi ehtimoli yuqori. Agar siz o'z kontentingizni plagiat tekshiruvchisida tekshirmasangiz, bu muallif huquqining buzilishi bo'ladi. Bunday holda, qoidabuzarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilishi mumkin. Agar kontentingiz mualliflik huquqi qonunlarini buzsa, plagiat qilishda aybdor bo'lgan shaxs sifatida sudga murojaat qilishingiz ehtimoli katta.

Ko'pchilik plagiat tekshiruvni ma'lumotlar maxfiylik qonunlariga mos keladi. Ular qat'iy siyosatga ega va xodimlar siz yaratgan tarkibga kirish huquqiga ega emasligini tekshirishadi. Ularning serverlarida saqlangan tarkibni istalgan vaqtda o'chirishingiz mumkin. Plagiatning aniqligi siz foydalanadigan Plagiat dasturiga bog'liq. Plagiatning aniqligi ikki omil bilan belgilanadi: algoritmi va Plagiat dasturi tomonidan foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi hajmi. Ba'zi plagiat tekshiruvchilari faqat to'g'ridan-to'g'ri plagiatni aniqlay oladi, yaxshi plagiat detektorlari esa shunga o'xshash jumlar yoki so'zlar qo'llaniladigan plagiatni ham aniqlaydi.⁸

Matn originalligi deganda, matnning boshqa manbalar yoki asarlardan nusxa ko'chirilmagan, yangi va o'ziga xos bo'lishi tushuniladi. Bu matnning mazmuni, ifoda uslubi va g'oyalari jihatidan o'ziga xos, noyob ekanligini bildiradi. Matn original bo'lishi uchun u boshqalarning ishlari so'zma-so'z ko'chirilmasligi, balki muallifning o'z fikrlarini, yangi ma'lumot yoki o'ziga xos yondashuvini ifodalashi talab etiladi. Shu bilan birga, original matn o'z ichida yaxlit fikrlarni, ma'lumotlarni va muallifning shaxsiy qarashlarini aks ettiradi.

Matnning originalligi – plagiatga qarama-qarshi tushuncha. Matnda plagiat qancha ko'p bo'lsa, uning originalligi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Masalan, "Anti-plagiat" dasturi matnning originalligi darajasini 70% deb ko'rsatsa, bu matnning 30%i original emas, o'zlashtirilgan deb topiladi va ushbu qismning plagiat ekanligini anglatadi. Oliy ta'lim muassasalarining matn originalligiga qo'yadigan talablari turlicha bo'lib, 70% dan 90% gacha ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Originallikning bunday darajasiga talaba erishishi qiyin. Ayniqsa, huquqiy sohalarda har qanday qonun yoki normativ hujjatdan berilgan parcha plagiat belgisini keltirib chiqaradi. Foydalanilgan adabiyotlar va matnning boshqa shu kabi qismlari ham "Anti-plagiat" dasturida o'z aksini topadi. Shu bois plagiatga yo'l qo'yimaslikning muayyan qoidalariga amal qilish kerak.

1. Plagiatning mohiyatini anglash. Plagiat deganda faqatgina aynan ko'chirilgan matn emas, uning sinonimlar yordamida ma'lum darajada o'zgartirilgan imitatsiyasi ham tushuniladi. Shuning uchun ilmiy ish muallifning o'z so'zlari bilan ifodalangan bo'lishi, oxirida esa havola qilingan axborot manbalari ko'rsatilishi zarur. Shuningdek, plagiat deb Internetdan olingan ishlar, maxsus yollangan shaxslarga buyurtma berish yo'li bilan yaratilgan matnlar, bironing g'oyasini o'zining g'oyasi sifatida taqdim etishga aytiladi.

2. Yoritilayotgan mavzuni yaxshi bilish. Agarda ilmiy ish yozadigan shaxs mavzusini yaxshi bilsa va anglasa, ishni o'zining so'zlari bilan ifodalaydi va o'zgalarning so'zlarini

⁸ Maqola: MATNLARNI PLAGIATGA TEKSHIRISH DASTURIY TA'MINOTINI YARATISH. Elov Botir Boltayevich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD), dots.

keltirishga hojat qolmaydi. Buning uchun mavzu bo'yicha imkon qadar ko'proq axborot to'plash zarur. Bunday axborotni internetdan yoki kitoblardan topish mumkin, biroq kitoblardagi axborot ishonchliroq va aniqroq bo'lib hisoblanadi. Manbalar qancha ko'p bo'lsa, tasodifan biror ma'lumotni ko'chirib berish ehtimoli shunchalik pasayadi.

3. Olingan axborotni bir necha bor takrorlash. O'z so'zi bilan nimanidir tasvirlash uchun materialni yaxshi bilish kerak. Materialni yaxshi bilish uchun uni qayta-qayta o'rganishga to'g'ri keladi. Biroq bu yerda ham axborotning ong ostida saqlanib qolish va keyinchalik o'z fikri sifatida talqin qilinishi xavfi mavjud.

4. Iqtiboslar va manbalarga havolalar berish. Ilmiy ishning oxirida bibliografiya yoki foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Agar boshqa muallifning matnidan to'g'ridanto'g'ri iqtibos berilsa, uni talabga binoan rasmiylashtirish lozim, ya'ni ushbu havola orqali berilgan iqtibosga chiqish imkoni mavjud bo'lishi kerak.

5. Shubhali holatlarda plagiatning oldini olish. Plagiatning oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak: – o'zlashtirilgan jumlada manbani ko'rsatish ("B. Ahmedovga ko'ra, ...", "O. Mahmudovning fikricha, ..."); – boshqa asarlardan olingandek ko'rinadigan jummalarni qo'shtirnoqqa olish; – mualliflik huquqi asoslarini o'rganish; – havola berish shart bo'lmagan holatlarni bilib olish (barchaga ma'lum faktlar, folklor, mahalliy afsonalar, mashhur tarixiy voqealar va b.).⁹

Xulosa:

Ilmiy ish yoki matn yarataman deb bilib bilmay ko'chirmakashlikka yo'l qo'yib akademik halollikka putur yetkazmaslik uchun albatta plagiat haqida umumiy va xususiy bilimlarga ega bo'lish albatta muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fishman, T. (2009). "We Know it When We See It": Conceptualizing Plagiarism in the Digital Age.
2. Jones, K. (2022). "Plagiarism in Higher Education: Trends and Solutions."
3. Chien, S. (2020). Advances in Plagiarism Detection Using AI and Machine Learning.
4. Turnitin. (2021). The Importance of Academic Integrity. Retrieved from <https://www.turnitin.com>.
5. <https://scientific-jl.com/new/article/download/4233/4038/8088>
6. <https://compling.navoiy-ni.uz/index.php/conferences/article/download/93/87>
7. Maqola: MATNLARNI PLAGIATGA TEKSHIRISH DASTURIY TA'MINOTINI YARATISH. Elov Botir Boltayevich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD), dots.
8. G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – T., 2020. – 128 b.

⁹ G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – T., 2020. – 128 b.